(5). Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2021, 538 bet.
(6). Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror (matn, sharh, nasriy bayon), Birinchi kitob, Toshkent, “Tamaddun”, 2021, 400 bet.
(7). Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub (hozirgi o‘zbek tiliga tabdil), Toshkent, “Sano-standart", 2018,192 bet.

Fayzullayeva Obidaxon (GulDU “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori; e-mail: fayzullayeva2016@yandex.ru),
Soatova Shahnozabonu Farhod qizi (Guliston davlat universiteti Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2-kurs magistranti; e-mail: shahnozasoatova7@gmail.com)

“ASIL VA KARAM” DOSTONI QAHRAMONLARI TAQDIRIDA DINIY MOTIVLARNING O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalq folklorida motiv tushunchasi, diniy motivning badiiy-estetik xususiyatlariga e’tibor qaratilgan. Xalq dostonlaridagi diniy motivning badiiy-estetik xususiyatlari masalasi Xorazm “Oshiqnoma” turkum dostonlari tarkibiga kiruvchi “Asil va Karam” dostoni misolida tadqiq etilgan. Diniy motivning o‘ziga xos jihatlari, uning doston sujetidagi vazifasi, qahramonlar taqdiridagi o‘rni va ifodalanish tarzi kabi jihatlarga urg‘u berilgan.*

Kalit so‘zlar: *motiv, epos, obrazlar parallelizmi, sujet, tugun, badiiy-estetik xususiyatlar, turkumlilik.*

Файзуллаева Обидахан (ГулГУ, профессор кафедры узбекской литературы, доктор филологических наук; fayzullayeva2016@yandex.ru),
Соатова Шахнозабону Фарход кизи (Гулистанский государственный университет, магистрантка 2-курса литературоведениеческого направления; e-mail: shahnozasoatova7@gmail.com)

МЕСТО И РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ МОТИВОВ В СУДЬБАХ ГЕРОЯХ ЭПОСА «АСИЛ И КАРАМ»

Аннотация. *В данной статье рассматривается понятие мотива в узбекском фольклоре, художественно-эстетические особенности религиозного мотива. Вопрос художественно-эстетических особенностей религиозного мотива в народных эпосах исследуется на примере эпоса «Асил ва Карам», входящего в состав «Ашик туркум эпоса» Хорезма. Акцентируется внимание на конкретных сторонах религиозного мотива, его роли в сюжете эпоса, роли в судьбах героев, способе его выражения.*

Ключевые слова: *мотив, эпос, параллельность образов, сюжет, узел, художественно-эстетические особенности, непрерывность.*

Obidakhan Faizullayeva (GulSU, professor of the department of Uzbek literature, doctor of philology; e-mail: fayzullayeva2016@yandex.ru),
Soatova Shahnozabonu Farhod qizi (Gulistan State University 2nd year master's student in literary studies; e-mail: shahnozasoatova7@gmail.com)

THE PLACE AND ROLE OF RELIGIOUS MOTIVES IN THE DESTINIES OF THE HEROES OF THE EPIC “ASIL AND KARAM”

Annotation.*This article focuses on the concept of motive in Uzbek folk folklore, artistic and aesthetic features of religious motive. The issue of artistic-aesthetic features of the religious motive in folk epics is studied on the example of the epic “Asil and Karam”, which is part of the “Ashiq” cyclicity epics of Khorazm. Emphasis is placed on the specific aspects of the religious motif, its role in the plot of the epic, its role in the fate of the heroes, and the manner of its expression.*

Keywords: *motive, epos, parallelism of images, plot, knot, artistic-aesthetic features, cyclicity.*

Kirish. O‘zining qadimiy va barqaror dostonchilik an’analariga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi ma’naviy bisotida boy va rang-barang epik asarlar juda katta ko‘lamni tashkil etadi. Ular ajdodlarimiz epik tafakkur taraqqiyotining eng yuksak cho‘qqisini zabt etganligining isbotidir. Xorazm vohasida eng qadimdan keng tarqalgan, o‘zining obrazlar sistemasi, voqealarni tasvirlash usuli jihatidan alohida guruhni tashkil etadigan ishqiy-sarguzasht dostonlar “Oshiqnoma” turkumi atrofiga jamlanadi. Ushbu turkumga mansub “Asil va Karam” dostoni Xorazm o‘zbeklari orasida juda keng ommalashgan. Ozarbayjon folklorshunosi M.X.Taxmasbning yozishicha, “Bu doston arman go‘zali va ozarbayjonlik yigit Karam o‘rtasidagi sof muhabbatning tarannumiga bag‘ishlangandir” [1;20-b.].

Adabiyotlar tahlili. “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati”da “Motiv sujet tarkibidagi halqalardan biridir”, deyilgan. Sujet asar mazmunini tashkil etadigan voqealar tizimi bo‘lsa, motiv shu voqelikni yuzaga chiqaruvchi asosiy unsur hisoblanadi. Ushbu fikrga qo‘shimcha qilib M.

Jo‘rayevning fikrini keltirish mumkin: “Motiv (fr.motif – kuy, ohang so‘zidan) sujet tarkibidagi uni yuzaga keltiruvchi asosiy halqalardan biri. Motivlar o‘zaro birlashib syujetni yuzaga keltiradi. Motiv termini xalq og‘zaki ijodida, xususan, doston, ertak kabi katta epik janrlarni o‘rganishda ishlatiladi”. Badiiy asarning motivi haqida mutaxassis olimlarning qarashlari turlicha. V.Propp va B.Putilovlar motivlarning hamisha o‘zgaruvchan ekanligiga, ular sujetning kichik bir bo‘lagi bo‘lgan holatda uning o‘zi ham bo‘laklardan tashkil topishiga e’tibor qaratadi. “Motiv sujetning mag‘zidir”, deydi B.Putilov [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Xalq dostonlari uchun tanlangan ushbu motiv va uning o‘ziga xos xususiyatlari, “Oshiqnoma” turkum dostonlari tarkibidagi “Asil va Karam” dostoni misolida tadqiq etilgan, chunki ushbu dostonda diniy motivning eng sara namunalari yaratilgan. Maqolada badiiy tahlil va chog‘ishtirma metodlardan unumli foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. “Oshiqnoma” turkum dostonlari xususida ilmiy izlanish olib borayotgan Gulfiza Olimovaning ta’kidlashicha, ushbu turkum tarkibida keltirilgan motivlarni 8 ta guruhga ajratadi:

1. G‘ayritabiiy tug‘ilish motivi.
2. Tushda oshiq bo‘lish motivi.
3. Tushda nikohlanish motivi.
4. Tushda eranlarning sharob berishi motivi.
5. Akalarning ukani chohga tashlashi motivi.
6. O‘z qiziga oshiq bo‘lish motivi.
7. Oshiqning otasiga sezdirmay ketish motivi.
8. Sehr qilish motivi [3;157-b.].

“Asil va Karam” o‘zbek xalq eposlari orasida diniy motivlar keng o‘rin olgan epik asarlardan biridir. Doston qahramonlarining taqdirida diniy motivlar ularga yordam beruvchi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi kuch sifatida gavdalanadi. Diniy e’tiqoddagi tafovut doston sujetidagi asosiy tugun vazifasini bajaradi. Asarning asosiy diniy motivlari quyidagilardan iborat.

1. Farzandsizlik sabab xudodan farzand so‘rash. Ma’lumki, adabiyotda sayyor sujet tushunchasi, ya’ni, barcha xalqlar adabiyoti, xususan, dostonchilik uchun ham asos bo‘luvchi o‘xshash sujet nuqtalari mavjud. Bu hodisa bevosita xalq og‘zaki ijodiga ham tegishli bo‘lib, asosan, motivlar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, “Alpomish” dostonini olaylik. Doston farzandsizlik voqealari bilan boshlanadi. Lekin aynan shu hodisa “Kuntug‘mish”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Tohir va Zuhra” dostonlarida ham bor. Shuningdek, “Asil va Karam” dostoni ham hukmdorning farzandsizlik va shu sababdan hazrati Alining qabriga borib ibodat qilish voqealari bilan boshlanadi:

Ziyodxon aytadi: yo Ali imom
Bandaning ko‘nglidan ketmasin gumon
Avvalda imondur,oxirda imon
Shoyad biza farzand ber deb yig‘larman [4;20-b.].

2. E’tiqodlar tafovuti. doston sujetidagi tugun asosini o‘zaro ikki millat o‘rtasidagi diniy tavofutlar tashkil etadi. Bosh qahramon Karam musulmon yigit, Asilxon esa armani millatiga mansub o‘zga din vakili. Asilxonning otasi Qoramalik esa qizini o‘zga din vakiliga berishni istamaydi va qirq mingli uyli armani Ganjiqorabog‘dan ko‘chib ketadi. Aynan shu sabab tufayli oshiqlar birga bo‘lish yo‘lida azob-uqubatlarga uchraydilar.

San mango yor bo‘lsang birga ketali
Qozidin,muftidin nikoh olali,
Har din qabul bo‘lsa shungo kirali,
Yo san musulmon bo‘l, yo man armani. [4;21-b.]
yoki:
Ka’baga borganlar etarlar tilak,
Qahbo falak qo‘ymas shod etib kulmak,
Osmon falak, armonlisan dod falak,
Yuz dog‘im bor, ming dog‘ qo‘yding ustina [4;21-b]

3. Ritual va marosimlar. Xalq dostonlarida, xususan, “Asil va Karam” dostonida ham diniy marosimlar, nikoh, duo qilish, qurbonlik keltirish kabi amallar tasvirlanadi. Ular orqali xalqning urf-odatlari va diniy an’analari ifoda etiladi.

4. Sabr va qanoat. Diniy motivning ushbu jihati doston qahramonlarining har ikkisida ham teng miqyosda yuzaga chiqadi. Ularning har qanday qiyinchiliklarga bardosh berishi e’tiqodga bo‘lgan ishonchidan kelib chiqadi, lekin bu qarash asarda parallel ravishda emas, balki galma galdan namoyon bo‘ladi. Bu

esa ular uchun diniy jihatdan kuchli ruhiy tayanch hisoblanadi. Karam – podshohning o‘g‘li. Otasi unga Asilxonning izidan yurmaslikni, unga istalgan go‘zal qizni olib berajagini aytadi. Lekin Karam majolsizlikdan qor ostida qolib, uni o‘z yurtiga ketayotgan savdogarlar topib olganda ham, ular bilan Ganjiqorabog‘ga ketishni istamaydi. Asilxonni bir bora ko‘rish istagida sog‘ tishlarini sug‘urtirishga ham rozi bo‘ladi.

Yorim ko‘rmadim vafoni,
Surmadim zaq-u safoni,
Ul Muhammad Mustafoni,
Ko‘ribam so‘ngra o‘lsaydim.

5. Axloqiy qadriyatlarni qadrlash va sadoqat. Qahramonlar rostgo‘ylik va sadoqat kabi diniy va axloqiy sifatlarni o‘zida tarbiyalab, bu qadriyatlarni o‘z taqdirida qo‘llashga harakat qiladi. Bu jihat asar yakunida Karamning fojiaviy o‘limidan so‘ng ham unga 40 yil sadoqat ila qori Qur’onlar qo‘yib, o‘zi toat ibodatlarga mashg‘ul bo‘lgan Asilxonning taqdirida namoyon bo‘ladi. O‘limi oldidan ham hazrati Aliga nola qilib, undan Karam vasliga yetishtirishini so‘raydi:

Musofirman bu shaharni naylayin,
Pirim sizdan Karamjonni tilarman.
Ilojim yo‘q dardim kima so‘zlayin
Pirim sizdin Karamjonni tilarman [4;51-b.]

yoki:

Man tilarman sannan barcha gunohim,
O‘zingdursan hamma joyda panohim,
Qabul etgil munojotni Xudoyim
Rasulullo madad berar kuningdur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda diniy motiv xalq dostonlarida nafaqat sujetni boyituvchi, balki xalqning e’tiqodiy va ma’naviy dunyosini aks ettiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ular insoniyatni axloqiy qadriyatlarni asrashga va yuksak ma’naviyat sari intilishga chorlaydi. “Asil va Karam” dostoni o‘zining hayotiyligi, do‘stlik, birodarlik g‘oyalarini targ‘ib qilishi, sevgi-muhabbatning ijtimoiy hayot bilan bog‘liq tomonlarini ochib berishi, vafodorlik, fidoyilik, taqdir taqozosiga bo‘ysunmaslik kabi qator ijobiy hislatlarni ulug‘lashi bilan tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ushbu dostonning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda boshqa ishqiy-romantik dostonlardagi kabi oshiq-ma’shuqalarning murod va maqsadlariga yetishishi emas, balki ikki sevishgan yoshning fojiali hayoti tasvirlab beriladi. Aynan ushbu tendensiyalarning keng miqyosda ochib berilishi va yuzaga keltiruvchi muhim jihatlardan biri bu diniy motiv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Taxmasb M. Ozarbayjon muhabbat dostonlari. Toshkent, 1973, 20-bet.
(2). Путилов Б. Мотив как сюжетообразуюшей элемент. Типологические исследование по фольклоре. М., “Наука”, 1975.
(3). “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi VII an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. T., 2024, 26-aprel, 157-bet.
(4). Oshiqnoma. To‘plam. 8-kitob, Urganch, UrDU noshirlik bo‘limi, 2019.
(5). To‘ychiyev U. Adabiy turlar va janrlar. 3 tomlik, 2-tom, T., “Fan”, 1992, 26-bet.
(6). Кодуэлл Кристофер. Иллюзия и действителность. Москва, “Прогресс”, 1969, с. 274.
(7). Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы. Москва, “Прогресс”, 1978, с. 258.

Садуллаева Нилуфар (преподаватель английского языка Узбекского государственного университета мировых языков)

ОРАЛЬНАЯ РЕЧЬ: ПРОБЛЕМЫ И ТЕОРИИ

Аннотация. *В статье устная речь – один из наиболее естественных и распространенных способов человеческого общения. Однако, несмотря на кажущуюся простоту, это сложный процесс, связанный со многими факторами. Говорение: искусство живых слов. Объясняются проблемы и предложения использования устной речи в общении.*

Ключевые слова: *устная речь, интеграция, мышление, говорение, новости, дикция.*

Sadullayeva Nilufar (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti ingliz tili o‘qituvchisi)

O‘G‘ZAKI NUTQ; MUAMMOLAR VA NAZARIYA

Annotatsiya. *Maqolada og‘zaki nutq insoniy muloqotning eng tabiiy va keng tarqalgan usullaridan biriligi. Biroq ko‘rinadigan soddaligiga qaramay, bu ko‘plab omillar bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab ja-*